

O'SMIR SHAXSINI SHAKLLANISHIDA O'Z- O'ZINI ANGLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

SH.J.Xasanova

O.R.Avezov

Tayanch tushunchalar: *o'smir, o'smirlar guruhi, o'zini o'zi psixologik muhofaza qilish, yo'nalganlik darajasi, talim-tarbiya sohasi, o'smirlik davridagi xulq og'ishlari, psixologik bilimlar, jismoniy taraqqiyot, psixik rivojlanishdagi krizis.*

Annotatsiya: *Ma'lumki, psixologiya fanida aynan o'smirlik davri va o'smirlik davridagi shaxs yo'nalganlik muammosiga bag'ishlangan va uning barcha yo'nalishlarini batafsil bayon etishga qodir ilmiy adabiyotlar yetarli bo'lmasa-da, bugungi kunda fan olamida va jamiyat taraqqiyotida o'smirlarning o'zaro munosabati va ularning ziddiyatli vaziyatlardagi xulq-atvori muammosining zarurligini ko'rsata oluvchi va uning "metodologik ildizlarini" asoslab bera oluvchi ilmiy tadqiqotlarni alohida qayd etish mumkin. Ushbu maqolada o'smirlik davriga xos bo'lgan jihatlari ochib berilgan.*

Аннотация: *Известно, что в науке психологии, хотя и недостаточно научной литературы, посвященной проблеме подросткового периода и ориентации личности в подростковом периоде и способной подробно описать все ее направления, сегодня в мире Отдельно можно отметить науку и научные исследования, которые показывают необходимость проблемы взаимодействия подростков и их поведения в конфликтных ситуациях в развитии общества и могут обосновать ее «методологические корни». В данной статье раскрываются особенности подросткового возраста.*

Mavzuning dolzarbligi. Insoniyat paydo bo'lganidan e'tiboran farzandlarining barkamol voyaga etishi jamiyatda muhim muammo sifatida qarab kelingan. Chunki, jamiyat mavjud ekan, insonga xos barcha sifatlar, mafkuraviy qarashlar uning xarakteriga, ongiga, tafakkuriga singdirib boriladi. Tarbiyaning maqsadi, mazmuni va unga qo'yiladigan talablar jamiyat o'zgarishi, davr o'tishi va zamon rivojlanishi bilan ham o'zgarib boraveradi. Bugungi kunda O'zbekistonda barqarorlashib borayotgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatni idrok qilishning natijasi har bir shaxsda paydo bo'layotgan psixologik holatlar, psixologik jarayonlar u yoki bu tarzda shaxsdan kuchli bilim va tajribalarni talab etmoqda.

Har qanday xalqning, davlatning, yoki millatning ma'naviy taraqqiyoti darajasi o'sha davlatda, yurtda mavjud ma'naviy boyliklar ko'lami butun bir xalq yoki har bir insonning ma'naviy-ma'rifiy barkamolligi bilan o'lchanadi. Insoniyat tafakkuri necha ming yillik tarixga ega bo'lsa, uning har bir bosqichida o'ziga xos bilim va g'oyalar vujudga kelgan.

Bugungi kunda talaygina o'smirlar o'quv faoliyatida juda ko'plab muvaffaqiyatsizliklarga uchrayotganliklarini kuyunib gapirmoqdalar, shuningdek,

kattalar tomonidan ularga bildirilayotgan muomala jarayonidan qoniqmay kelayotganliklari va buning oqibatida qattiq asabiylashgan holda faoliyat yuritayotganliklarini qayta-qayta ta'kidlaydilar. Bularning barchasi, o'smirlar guruhi uchun xarakterli bo'lgan o'zini

o‘zi psixologik muhofaza qilish hamda yo‘nalganlik darajasi doirasidagi tadqiqotlarga bo‘lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko‘rsatadi.

Talim-tarbiya sohasiga shunday mutaxassislar kerakki, ular har taraflama yetuk bo‘lishi lozim. Chunki ular tarbiya qilgan bolalar erkin fikrlaydigan, o‘z kasbini o‘zi erkin tanlay oladigan, hayotda o‘z o‘rnini o‘zi topib yashaydigan bolalar yetishib chiqsagina, biz talim samaradorligini tasirini ko‘rishimiz mumkin. Ta‘lim samaradorligini oshirish uchun hamma shart-sharoitlarni yaratish o‘quvchi bilan o‘qituvchi va o‘quvchi bilan o‘quvchi, o‘quvchi va ota-onalar munosabatini ham yaxshilash, ya‘ni har qanday noxush holatni oldini olish dolzarb muammolardan biri hisoblanib, har bir talim sohasida ishlaydigan pedagog va psixologlarning vazifasidir. Tashqaridan qaraganda hal etilgandek tuyulgan ushbu muammo aslida surunkali ichki nizoga aylangan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ham o‘smirlik davridagi xulq og‘ishlarini to‘liq bartaraf etilishida o‘qituvchi va psixologlarning barchasi psixologik bilimlarga ega bo‘lishi shart hisoblanadi.

O‘smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o‘smirlik 11-13 yoshni, katta o‘smirlik - 14 - 15 yoshlarni o‘z ichiga oladi. O‘smirlik - organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro‘y beradi. Yurak va qon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo‘lib, bu ham bola fe‘lining o‘zgaruvchan, dinamik va ba‘zan noma‘qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular albatta asab tizimiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatib, bola tezga achchiqlanadigan yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya holatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi ham mumkin.

O‘smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy balog‘at bo‘lib, u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi. Shu bilan bog‘liq holda ongli (ko‘pincha ongsiz) jinsiy mayllar, shu bilan bog‘lik noxush his- kechinmalar, fikrlar paydo bo‘ladiki, bola ularning asl sababini ham tushunib yetolmaydi. Psixik taraqqiyotning o‘ziga xosligi shundaki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko‘plab qarama-qarshiliklarni o‘z ichiga oladi. Bu taraqqiyot o‘quv jarayonida kechgani uchun ham to‘g‘ri tashkil etilgan o‘quv faoliyati bola psixikaning muozanati va uning turli fikr-o‘ylardan chalg‘ishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda bola mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko‘proq o‘z fikr- o‘ylari dunyosida mushohada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko‘paytirishga intiladi. Buning sababi - yana o‘sha kattalikka o‘tish bo‘lib, bolada o‘ziga xos “kattalik” hissi paydo bo‘lib, bu narsa uning gapirishi va fikrlashlarida ham ifodalanadi. Shuning uchun ham maktabda berilgan mustaqillik va to‘g‘ri tashkil etilgan o‘qish sharoitlari, samimiylik muhiti unda mustaqil fikrlashiga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin. Shunga bog‘liq tarzda o‘smirning o‘z falsafasi, o‘z siyosati, baxt va muhabbat formulasi yaratiladi. Mantiqan fikrlashga o‘rganishi esa unga o‘zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish, tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o‘ziga xos o‘smirlik egotsentrizmining shakllanishiga - butun olam va uning qonuniyatlari unga bo‘ysunishi kerakday fikrning paydo bo‘lishiga olib keladi. Shuning uchun ham aynan o‘smirlik paytida bolalar o‘z ota- onalari bilan hadeb tortishaveradilar. Aniq bir to‘xtamga kelolmasa ham tortishish biror fikrni izhor qilish ehtiyojining o‘zi unga juda yoqadi.

Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a‘zolarining mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekretiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o‘sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi.

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlik yoshiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rgana turib, o‘smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolatga erishish yo‘llarini va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta’sirini tushunish mumkin. Bu davrda o‘smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o‘z o‘rnini topa olmagan holatda bo‘ladi, o‘smirlik davri «O‘tish davri», «Krizis davr»,

«Qiyin davr» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi.

Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakatida muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni «psixik rivojlanishdagi krizis» deb nomlagan. O‘smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy yetilish o‘smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta’sir ko‘rsatib, bu ta’sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir. O‘smirlik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xos.

O‘smir shaxsining taraqqiyotida eng muhim momentlardan biri unda o‘zini anglashning tarkib topishi, o‘zini shaxs sifatida anglash ehtiyojining tarkib topishidan iboratdir. Kichik yoshdagi davrda o‘ziga baho berish istagi bo‘lmaydi: “ Men qanday odamman? Men qanday foyda keltirishim mumkin? Mening qanday yaxshi tomonim bor? Mening qanday kamchiliklarim bor?”. O‘smirda bo‘lsa, o‘z- o‘ziga nisbatan, o‘zining ichki ruhiy hayotiga, o‘z shaxsining sifatlariga qiziqish yuzaga keladi. O‘zini boshqa kishilar bilan taqqoslash, o‘ziga baho berish ehtiyoji paydo bo‘ladi. O‘smir o‘ziga nazar solib qaray boshlaydi, o‘zi uchun qandaydir tarzda o‘zining “Men”ini ochadi.

O‘zini anglashning dastlabki tarkib topishi va bundan keyingi taraqqiyoti o‘smirning butun psixik taraqqiyotiga, o‘qish faoliyatining xarakteriga, tevarak- atrofga bo‘lgan munosabatlarining tarkib topishiga, uning boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlariga ta’sir qilib, chuqur iz qoldiradi. O‘zini anglash ehtiyoji hayot ehtiyojlaridan kattalarning, kollektivning o‘sib borayotgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Ijtimoiy hayot va jamoaga bo‘lgan qiziqishning rivojlanishi munosabati bilan o‘smirlarda o‘z imkoniyatlariga baho berish,

kollektivda o‘z o‘rnini aniqlash, xatti-harakatlari va o‘z shaxsining qanday xususiyatlari uning oldiga qo‘yilayotgan talablarga yuksak darajada javob berishga yordam berishi yoki halaqit berishini anglash ehtiyoji paydo bo‘ladi.

O‘smirlarda o‘zini anglashning rivojlanishi ularning o‘z xatti-harakatlarini anglashlaridan boshlanadi, undan so‘ng o‘zlarining axloqiy sifatlarini, xarakterlarini va o‘z qobiliyatlarini anglashdan boshlanadi. Dastlabki paytlarda o‘smirlarning o‘zini anglashi asosida uning haqida boshqa odamlarning, kattalarning, jamoaning va o‘rtoqlarining mulohazalari yotadi. Kichik yoshdagi o‘smir o‘ziga go‘yo atrofdagi odamlarning ko‘zi bilan qaraydi. Yosh ulg‘ayishi bilan o‘z shaxsini mustaqil tahlil qilish va baholash tendensiyasi boshlanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlardan ma‘lum bo‘lishicha, o‘smir shaxsining hamma sifatlarini ham bir vaqtning o‘zida anglay boshlamaydi.

O‘zini o‘zi baholash – o‘z-o‘zini anglashning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, insonning o‘z qobiliyatlari, axloqiy sifatleri va harakatlarini baholashi, o‘zi haqidagi bilimlarini o‘z ichiga oladi. O‘zini o‘zi baholash adekvat va noadekvat bo‘lishi mumkin. Adekvat o‘z-o‘zini baholash insonga o‘ziga nisbatan tanqidiy munosabatda bo‘lish, turli qiyinlikdagi vazifalarga va atrofdagilar talabiga mos ravishda o‘z kuchini to‘g‘ri baholash imkonini beradi. O‘z-o‘zini adekvat baholaydigan inson o‘z qobiliyat, layoqatlarini to‘g‘ri baholaydi, qo‘lidan keladigan ishlarni “bu mening qo‘limdan keladi” deb a‘lo darajada bajaradi, qo‘lidan kelmaydigan ishlarni o‘z vaqtida “kechirasizlar, bu mening qo‘limdan kelmaydi” deb o‘z vaqtida tan oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avezov O.R. Ekstremal vaziyatlarda psixologik xizmat Darslik, "KAMOLOT" nashriyoti, 2023 yil. 332 bet.
2. Avezov O.R. Mutaxassislikka kirish. Darslik, "Durdona" nashriyoti, 2021 yil. 243 bet.
3. Avezov O.R. Deviant xulq-atvor psixologiyasi. Darslik, " Buxoro viloyati bosmaxonasi" nashriyoti, 2019 yil. 495 bet.
4. Avezov O.R., SH.R. Barotov, L.YA. Olimov. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O‘zbekiston faylasuflari jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019 yil. 492 bet.
5. Avezov O.R. L.YA. Olimov, A.M. Nazarov. Shaxs psixologiyasi. Darslik. "Durdona" nashriyoti Buxoro. 2019 yil. 340 bet.
6. Бадмаев С.А. Психологическая коррекция отклоняющегося поведения школьников. Издание 4-е. - М., 1999. - 96 с.
7. Бандура А., Уолтере Р. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. - М.: Апрель-Пресс, изд-во ЭКСМО- Пресс, 2000.- 509 с.
8. Бандура А. Теория социального научения. Монография - Санкт - Петербург: Евразия, 2000. - 320 с.